

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Ro'yxatga olindi
№ MO-41/3-D
2023 yil

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirining
2023 yil 23.09.2023 dagi
sonli buyruq'i bilan
tasdiqlangan.



“INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI”

yo'nalishi bo'yicha akademik litseylar pedagog xodimlarini
malakasini oshirish kursining o'quv dasturi

Toshkent – 2023

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

OLIV TA'LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI

*Malaka oshirish kursining o'quv dasturi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim
yo'naltirish bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi
kengashining 2023 yil 11.08. dagi 4 - sonli bayonnomasi bilan
ma'qullangan*

Tuzuvchilar:

Tayanch modullari:

FarDU Axborot texnologiyalari kafedrası dotsenti v.b.,
p.f.f.d. (PhD) V.Jo'rayev
FarDU Amaliy matematika va informatika kafedrası katta
o'qituvchisi Farmonov Sh.

Taqrizchi:

K.Karimov - Farg'ona davlat universiteti "Matematik
analiz va differensial tenglamalar" kafedrası dosenti, f.m.f.n.

*O'quv dasturi Farg'ona davlat universiteti Kengashining qarori bilan tasdiqqa
tavsiya qilingan. (2023 yil "27" 06 dagi 11-sonli yig'ilish bayonnomasi)*

KIRISH

Dastur O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda tasdiqlangan
"Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil
3 dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar
faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4910-son hamda
Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 iyundagi "Akademik litseylar rahbar va
pedagog xodimlarining uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish
to'g'risida"gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo'naltirish mazmunidan
kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish
jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog
xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan tayanch modullari mavzulari orqali akademik
litseylarda faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlarning pedagogik dasturiy
vositalar va ularni yaratish texnologiyalari, elektron darsliklar yaratish
texnologiyasi, o'quv jarayonida online texnologiyalardan foydalanish hisobiga
ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam
takomillashtirish bilan birgalikda pedagog xodimlarning ehtiyojlari asosida tanlab
olingan tanlov modullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari
ta'minlanadi.

Malaka oshirish kursining o'quv dasturi quyidagi tayanch modullar mazmunini
o'z ichiga qamrab oladi:

- 1.1. Pedagogik dasturiy vositalar va ularni yaratish texnologiyalari.
- 1.2. Elektron darsliklar yaratish texnologiyasi.
- 1.3. O'quv jarayonida online texnologiyalardan foydalanish.
- 1.4. Modulga oid dolzarb masalalar tahlili.
- 1.5. Yakuniy nazorat

Kursning maqsadi va vazifalari

Akademik litseylar pedagog kadrlarining malakasini oshirish kursining
maqsadi pedagog kadrlarning o'quv-tarbiyaviy jarayonlarini yuqori ilmiy-metodik
darajada ta'minlashlari uchun zarur bo'ladigan kasbiy bilim, ko'nikma va
malakalarini muntazam yangilash, kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratining
uzluksiz rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Kursning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- zamonaviy pedagogik vositalari haqida tushunchalarni, ularning har xil
turlariga yaratish texnologiyalari va ta'lim jarayonida qo'llash usullari bilan ishlash
malakasini shakllantirish;

- pedagoglarning zamonaviy talablarga mos holda akademik litseylardagi o'qitish sifati va samaradorligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan kasbiy mahorat darajasini oshirish;
- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarning samarali o'zlashtirilishini ta'minlash;
- o'qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish hamda ulardan o'quv jarayonida samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'quv jarayonini ilim-fan va ishlab chiqarish bilan samarali integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan faoliyatni tashkil etish;
- elektron darsliklar va ulardan foydalanishning afzalliklarini tushuntirish;
- elektron darsliklar yaratish tartibi va unga qo'yiladigan talablar mazmuni bilan tanishtirish;
- elektron darsliklar yaratishda zamonaviy telekommunikatsiya va multimedia vositalarining o'rini aniqlash;
- online ta'lim platformalari va ulardan foydalanish bo'yicha tinglovchilarning kasbiy bilim, ko'nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish;
- videodarslar va vebinarlar tashkil etish asoslari hamda vositalaridan foydalanishni o'rganish;

Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo'yiladigan talablar:

Kurs yakunida tinglovchilar quyidagi yo'nalishlarda bilim, ko'nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo'lishlari talab etiladi:

Tinglovchi:

- pedagogik dasturiy vositalarning umumiy ta'rifini, namoyish etuvchi dasturlarini, nazorat qiluvchi dasturlarini, o'rgatuvchi dasturlarini, dasturiy vositalarning didaktik imkoniyatlarini, ekspert-o'rgatuvchi tizimlarini, avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi tizimlarini, foydalanuvchi va pedagogik-dasturiy vositalarning o'zaro xamkorligini tashkil etish metodlarini;
- pedagogik-dasturiy vositalar yaratish tamoyillarini;
- pedagogik-dasturiy vositalar ssenariysini yaratish texnologiyasini;
- elektron darslik yaratish texnologiyasi;
- foydalanish maqsadini aniqlash, o'quv materiallarini taxlil qilish va tanlash, uni strukturalash va formallashtirish, pedagogik ssenariyni taqdim etish;
- "Lektor" boshqa tizimlari ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;
- o'quv-ta'lim jarayonida elektron darslik yaratish va ulardan samarali foydalana olishni *bilishi* kerak.

Tinglovchi:

- pedagogik-dasturiy vositalarining ssenariysini yaratish texnologiyasi;
- foydalanish maqsadini aniqlash, o'quv materiallarini taxlil qilish va tanlash, uni strukturalash va formallashtirish, pedagogik ssenariyni taqdim etish;
- pedagogik dasturiy vositalarda o'quv faoliyatni boshqarish; dasturlash tillarida pedagogik-dasturiy vositalar yaratish;
- didaktik o'yinli texnologiyalardan informatika yo'nalishidagi fanlarni o'qitishda foydalanish;
- informatika yo'nalishidagi fanlardan darsliklar va o'quv metodik qo'llanmalar, elektron darsliklar, o'quv kursining elektron-ta'lim resurslarini yaratish;
- ta'lim tizimida bilim, ko'nikma va malakalarning to'liq o'zlashtirishini ta'minlash;
- QT, PyQT, Spyder, Colaboratory dasturlash muxitlarida dasturlash;
- informatika va axborot texnologiyalari faniga innovatsion yondashish, informatika va axborot texnologiyalari fanlarini o'qitishning zamonaviy metodlaridan samarali foydalanish, zamonaviy dasturlash asoslari bo'yicha nashr etilgan so'ngi o'quv va ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish *ko'nikma va malakalariga* ega bo'lishi lozim.

Tinglovchi:

- qobiliyatli va iqtidorli o'quvchilarni o'qitish hamda ularning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish;
- vebinar, onlayn ma'ruza, «blended learning», «flipped classroom», bulutli texnologiyalardan foydalanib ta'lim jarayonlarini takomillashtirish;
- standart va nostandart o'quv va test topshiriqlari majmuasini ishlab chiqish;
- QT, PyQT dasturlash muhitarida loyihalar yaratish;
- informatika va axborot texnologiyalari fanlarini o'qitishda innovatsion texnologiyalarga asoslangan ma'ruza, munozara, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini loyihalash va pedagogik faoliyatda qo'llash;
- ta'lim jarayonida google xizmatlaridan foydalanish *kompetensiyalariga* ega bo'lishi lozim.

Kursning hajmi

Malaka oshirish kursi 8 kredit (48 soat)ni tashkil etadi. Bunda o'quv dasturining 4 kredit (24 soat)ga mo'ljallangan tayanch modullari ishdan ajralgan holda qayta tayyorlash va malaka oshirish mintaqaviy markazlarida o'qish orqali hamda ishdan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirish shakllarini bajargan holda

kamida 4 kredit yig'ish orqali amalga oshiriladi. Mustaqil malaka oshirish shaklida pedagog xodimlar tanlov modullarini o'zlashtirish orqali hamda so'ngi bir yilda bajaragan kasbiy faoliyat natijalari bo'yicha kreditlar yig'ib boradilar. Malaka oshirish davomida kamida 8 kredit birligini to'plagan pedagog xodimlarga QR-kod tushirilgan elektron shakldagi sertifikat taqdim etiladi.

“INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” YO‘NALISHI BO‘YICHA MALAKA OSHIRISH KURSI TAYANCH O‘QUV MODULLARINING MAZMUNI

1.1. Pedagogik dasturiy vositalar va ularni yaratish texnologiyalari

Pedagogik dasturiy vositalarning umumiy ta'rifi. Pedagogik-dasturiy vositalar yaratish tamoyillari. Pedagogik dasturiy vositalarning umumiy ta'rifi. Pedagogik-dasturiy vositalar yaratish tamoyillari. Pedagogik dasturiy vositalar yaratishda qo'llaniladigan zamonaviy dasturlar va ularning turlari. Pedagogik-dasturiy vositalar yaratish texnologiyasi. Pedagogik dasturiy vositalarning foydalanish maqsadini aniqlash, o'quv materiallarini taxlil qilish va tanlash, uni strukturalash va formallashtirish, pedagogik ssenariyini taqdim etish. Power Point-iSpring pokeni yordamida taqdimot shaklida multimedia o'quv ilovalar yaratish. Camtasia Studio dasturi yordamida multimedia maxsulotlarini ishlab chiqish. Pedagogik dasturiy vositalarning foydalanish maqsadini aniqlash, o'quv materiallarini taxlil qilish va tanlash, uni strukturalash va formallashtirish, pedagogik ssenariyini taqdim etish.

1.2. Elektron darsliklar yaratish texnologiyasi

Elektron darsliklarning xususiyatlari va afzalliklari. Elektron darsliklarni yaratishda qo'llaniladigan dasturiy vositalar. Elektron darsliklarni yaratishda FsCapture, snaget dasturlari imkoniyatlaridan foydalanish. Elektron darsliklarni yaratish texnologiyalari kursi bo'yicha ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishning konseptual asoslari. Elektron darsliklarning xususiyatlari va afzalliklari.

1.3. Axborot tizimlari va dasturlash

Online ta'lim platformalari va ulardan foydalanish asoslari. Online ta'lim platformalarida o'quv materiallari, dars jadvali, vazifalarni va boshqa o'quv resurslari bilan ishlash. Videodarslar, vebinarlar va elektron darsliklar yaratishga asoslangan zamonaviy dasturiy vositalar. Adobe Premiere Pro, iMovie, Camtasia, OBS Studio, Adobe After Effects va Animator dasturlari bilan ishlash. Zoom va VooV dasturlari bilan ishlash. Ta'lim jarayonida google xizmatlaridan foydalanish.

1.4. Modulga oid dolzarb masalalar tahlili

Tinglovchilar mustaqil ravishda o'quv modulining dolzarb masalalarini tahlil etib, ularni hal etish usullari to'g'risida fikr-mulohazalar yuritadilar.

1.5. Yakuniy nazorat

Yakuniy nazorat tayanch modullari mazmunidan kelib chiqib onlayn test sinovlari asosida tashkil etiladi. Onlayn test sinovlarida 60 foizdan yuqori natijaga erishgan tinglovchilarga tayanch modullarini to'liq o'zlashtirgan hisoblanadi va ularga 4 kredit ajratiladi.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarda tinglovchilar o'quv modullari doirasidagi ijodiy topshiriqlar, keyslar, o'quv loyihalari, texnologik jarayonlar bilan bog'liq vaziyatli masalalar asosida amaliy ishlarni bajaradilar.

Amaliy mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari va innovasion texnologiyalarga asoslangan holda o'tkaziladi. Bundan tashqari, mustaqil holda o'quv va ilmiy adabiyotlardan, elektron resurslardan, tarqatma materiallardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ishdan ajralmagan holda mustaqil malaka oshirishni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Mustaqil malaka oshirish o'quv-metodik va ilmiy-pedagogik faoliyat hamda mustaqil tajriba o'tirish natijalariga ajratilgan kreditlarni yig'ish orqali amalga oshiriladi. Kasbiy faoliyat turlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish, stajirovka o'tash; iqtidorli va iste'dodli o'quvchilar bilan ishlash; ilmiy anjumanlarda ma'ruza bilan qatnashish; ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish; o'quv adabiyotlari (hammualliflikdagi darslik, o'quv qo'llanma)ni tayyorlash va nashrdan chiqarish. Mustaqil tajriba o'tirishda akademik litseylar pedagog xodimlari o'z ehtiyojlari va tanlovlaridan kelib chiqib, onlayn shakldagi tanlov modul dasturlarini o'zlashtiradilar. Mustaqil malaka oshirish shakli bo'yicha so'nggi bir yilda to'plangan kredit birliklari malaka oshirish natijalarini umumlashtirishda hisobga olinadi. Pedagog xodimlarning mustaqil malaka oshirish natijalari elektron portfolio tizimida o'z aksini topadi.

Dasturning axborot-metodik ta'minoti

Modullarni o'qitish jarayonida ishlab chiqilgan o'quv-metodik materiallar, tegishli soha bo'yicha ilmiy jurnallar, Internet resurslari, multimedia mahsulotlari va boshqa elektron va qog'oz variantdagi manbalardan foydalaniladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: "O'zbekiston", 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – T.: "O'zbekiston", 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. – T.: "O'zbekiston", 2020. – 400 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi" "O'zbekiston", 2021. – 464 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

7. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
8. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 22 yanvar "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-sonli Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentyabr "Oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun nomzodlarni maksadli tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3290-sonli Qarori.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabr "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabr "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli Farmoni.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrda "Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4910-son Qarori.

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 iyundagi "Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida" 296-son Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

16. Oliy ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko'magida. https://hiedtec.ecs.uniruse.bg/pimages/34/3_UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf
17. Boqiyev R.R., Matchanov A.O. Informatika. "O'qituvchi", Toshkent, 2010, 374 bet.
18. Usmonov A.I., Baxramov F.D. Kompyuter texnologiyalari asoslari. – T., 2010
19. Aripov M.M., Imomov T. va boshqalar Informatika. Axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanmasi, 1-2-qism. – T.: TDTU, 2005. – 334 b. va 394 b.
20. Aripov M., Fayziyeva M., Dottayev S. Web texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: "Faylasuflar jamiyati", 2013. – 350 bet.
21. Tillayev A.I. Fotodizayn, Adobe Photoshop. O'quv qo'llanma. – T.: "Adib", 2014. – 156 b.
22. Akmalov A. Informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishda tarixiy materiallardan foydalanish. – T.: "Fan", 2005. – 56 b.
23. Alixonov S., Rayenov M. Informatika va axborot texnologiyalari o'qitish metodikasi. – T.: Iqtisod moliya, 2010.
24. Федотова, Е. Л. Информационные технологии в науке и образовании Москва: Издательский Дом "ФОРУМ"; Москва : ООО "Научно издательский центр ИНФРАМ", 2013
25. To'rayeva G.H. Google Classroom platformasida ishlash bo'yicha metodik tavsiyalar. Uslubiy qo'llanma. Buxoro: 2020 – 36 b.
26. Yunusova D.I. Informatika va axborot texnologiyalarini o'qitishning zamonaviy texnologiyalari. – T.: Fan va texnologiyalar. 2011 y. 2000 b.
27. Виртуальная реальность как новая исследовательская и образовательная среда. Сергуз Д.н. и др. // ЖУРНАЛ Научно-аналитический журнал «Вестник Санкт-Петербургского университета Государственной противопожарной службы МЧС России», 2015. – S.185-197.
28. Игнатова Н. Ю. Образование в цифровую эпоху: монография. М-во образования и науки РФ. – Нижний Тагил: НТИ (филиал) УрФУ, 2017. – 128 s. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf
29. Moodle LMS tizimida masofaviy kurslar yaratish. O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: Toshkent farmatsevtika instituti, 2017.
30. Tursunov S.Q. Ta'limda elektron axborot resurslarini yaratish va ularni

joriy qilishning metodik asoslari. Monografiya. -T.: Adabiyot uchunlari, 2018.

31. Копытова Н.Е., Лоскутова В.И. Использование дистанционных технологий в повышении квалификации педагогических кадров // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. – 2014.- №9 (137). – S.38-42. URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=22289245>

32. Elektron ta'lim bo'yicha V.S.Xamidovning shaxsiy blogi <http://elearning.zn.uz/>

33. Kaatrakoski H., Littlejohn A., Hood N. Learning challenges in higher education: an analysis of contradictions within Open Educational Practice // Higher Education. – 2017. – Vol. 74, Issue 4. – P.599–615. DOI: <http://doi.org/10.1007/s10734-016-0067-z>

34. Yuldashev U.Yu , Boqiyev R.R., Zokirova.F.M. Informatika va axborot texnologiyalari. Elektron o'quv qo'llanma. - T, 2004

35. Кречетников К. Г. Социальные сетевые сервисы в образовании / Кречетников К. Г., Кречетникова И. В. / Тихоокеанский военно-морской институт имени Макарова С.О. – [http://ido.tsu.ru/other_res/pdf/3\(39\)_45.pdf](http://ido.tsu.ru/other_res/pdf/3(39)_45.pdf)

36. Nurmuhammedov G.N. Elektronniye uchebniye kursi: potrebnosti obrazovaniya, proyektirovaniye, razrabotka, problemi i perspektivi // Informatika i obrazovaniye.-2012.-№1.

37. Obidov A.E. Pedagog kadrlarni malakasini oshirish jarayonlarini vebinar texnologiyasi asosida takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya. Toshkent shahri – 2020 yil.

38. Means, B., Toyama, Y., Murphy, R., Bakia, M., & Jones, K. (2010, September). Evaluation of Evidence-Based Practices in Online Learning: A Meta-Analysis and Review of Online Learning Studies.

39. Tolametov A.A., Maxarov T.A. Interaktiv topshiriqlar, testlar, krossvordlar yaratishda «Hot Potatoes» dasturidan foydalanish. /O'qituvchilar uchun uslubiy qo'llanma. -T.: "LidirPress". 2019. 3,5 b.t.

IV. Internet saytlar

40. <http://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi.

41. <http://www.mtc.uz> - O'zbekiston Respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi.

42. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

43. <http://bimm.uz> – Oliy ta'lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta

tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi.

44. <http://ziyonet.uz> – Ta'lim portali Ziyonet.

45. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi.

46. <http://www.tuit.uz> - Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti.

47. <http://edtek.ru/kurs/luchshiy-onlayn-kurs-razmeshchenny-na-obrazovatelnoy-platforme/mook-tekhnologiya-sozdaniya-uchebnogo-video-kontenta/>

- MOOC: texnologiya sozdaniya uchebnogo kontenta.

48. <https://www.litres.ru/lps-ru/smm-dlya-novichkov>.

49. <https://zillya.ua/ru/check-password>.

50. <https://habr.com/ru/post/21822/>

51. <https://moodle.org/>

52. <https://www.coursera.org/>

53. <http://www.atutor.ca>

54. <http://www.efrontlearning.net/>

55. <https://classroom.google.com/h>



“ISHLAB CHIQUILGAN”:

Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi

Direktor T.T.Shoymardonov 2023 y.
“ ” M.O’:

M.O’:

Farg’ona davlat universiteti

Rektor

B.Shermuhomdov 2023 y.
“ ” M.O’:

M.O’:

“KELISHILGAN”:

Kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo’limi

Bo’lim boshliq

F.T.Esanboyev 2023 y.
“ ” M.O’:

M.O’:

Farg’ona davlat universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mintaqaviy markazi

Direktor

Y.Ahmadaliyev 2023 y.
“ ” M.O’:

M.O’: